



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA JAMOATCHILIK NAZORATINI TADQIQ ETISHDAGI YONDASHUVLAR

X.Sh.Xusanov

O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi 3-o'quv kursi kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20466437>

Annotatsiya: Korruptsiyaga qarshi nafaqat davlat organlari balki jamoatchilik organlarining faol harati va ularning bu illat yuzasidan asos deb biladigan fikr va mulohazalari batafsil yoritilib ko'rsatilib o'tilgan.

Аннотация: Подробно показаны активные действия не только государственных органов, но и общественных органов против коррупции, их мнения и соображения относительно этого зла, которое они считают основой.

Abstract: The active action of not only state bodies, but also public bodies against corruption, and their opinions and considerations regarding this evil, which they consider to be the basis, are shown in detail.

Kalit so'zlar: "Jamoatchilik nazorati", "Ijtimoiy fikr", "Murojaatnoma", "Jinoiy javobgarlik".

Ключевые слова: «Общественный контроль», «Общественное мнение», «Ходатайство», «Уголовная ответственность».

Key words: "Public control", "Social opinion", "Petition", "Criminal liability".

O'zbekiston Respublikasining «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonuni hamda ushbu sohani tartibga soluvchi milliy qonunchilikda jamoatchilik nazorati

Contact: 99 826 99 56



tushunchasining yuridik tabiatiga huquqiy ta'rif berilmaganligi bois, kelgusida mazkur sohada tadqiqot olib boruvchi olim va izlanuvchilar jamoatchilik nazoratining yagona yuridik ta'rifini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz¹.

Shu tariqa jamoatchilik nazoratiga normativ-huquqiy ta'rifning mavjud emasligi sababli, xorijiy ilmiy adabiyotlardan «korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi jamoatchilik nazorati» mazmunini to'liq ochib beradigan tushunchasining ilmiy ta'rifini izlashga qaror qildik.

Айрим тадқиқотчилардан қайд этишича, коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги жамоатчилик назорати фаолияти эксперт баҳоларидан (jamoatchilik ilmiy ekspertizasi) foydalangan holda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mansabdor shaxslari faoliyatini monitoring qilishdan iboratdir².

Mazkur sohadagi boshqa tadqiqotlarda, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi jamoatchilik nazoratining maqsadi turli xil vositalardan foydalangan holda davlat organlari faoliyatining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdir, shu jumladan jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik tekshiruvi va boshqa vositalar³.

Mualliflarinig korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi jamoatchilik nazoratiga davlat hokimiyati organlari tomonidan budget mablag'lari va tabiiy resurslarni taqsimlash ustidan nazoratni amalga oshirish faoliyati sifatida yondashib, korrupsiyaga qarshi jamoatchilik nazoratini budget munosabatlari va atrof-muhitni boshqarish sohasidagi nazoratga qisqartirgan qarashlari ham mavjud.

1 Batafsil qarang. O'zbekiston Respublikasining «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi 2018 yil 12 apreldagi 474-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 13.04.2018. 03/18/474/Nº1062.7.

2 Matveychuk YE.K. Obshestvenniy kontrol slujebnogo povedeniya gosudarstvennix slujashix v selyax effektivnoy borbi s korrupsiyey // Sledovatel. – 2011. – №6. – С.31-35.

3 Obshestvenniy kontrol nad pravooxranitelnimi organami: nauchno-prakticheskoye posobiye / pod obsh. red. V.S. Pivovarov. – Kiyev, 2013.





Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi jamoatchilik nazorati to'g'risida dastlabki tushunchani sotsiolog M.V.Shediy ishlarida mufassal uchratish mumkin. Muallif boshqa mualliflardan farqli o'laroq korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi jamoatchilik nazorati tadbirlarining ahamiyatini ko'rsatish uchun aynan «korrupsiyaga qarshi jamoatchilik nazorati» atamasini ishlatadi⁴.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi jamoatchilik nazorati tushunchasida davlat hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar oldida javobgarligini tushunishni taklif qiladi: birinchidan, fuqarolarning hokimiyat faoliyati to'g'risida zarur ma'lumotlar orqali hisobot olish huquqini;

Ikkinchidan, fuqarolarning tegishli choralar ko'rish huquqi, ya'ni ma'lumotlar yoki tushuntirishlar qoniqarsiz deb topilsa, sanksiyalarni qo'llanilishini bildiradi⁵.

Shubhasiz, ushbu korrupsiyaga qarshi jamoatchilik nazoratining yuridik tabiatiga oid ta'rif hokimiyat tomonidan vazifa yoki majburiyatlarini bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini anlatib, ammo davlat hokimiyati organlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi etilishi ustidan maxsus nazorat faoliyatini qamrab olmagan.

Fikrimizcha, ushbu holatlar boshqa mualliflarning tadqiqotlarida ham jamoatchilik nazoratini deyarli o'xshash yo'nalishda tasvirlangani bilan izohlanadi⁶.

Ta'kidlash lozimki zamonaviy xorijiy adabiyotlarda korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi jamoatchilik nazorati mazmunini davlat hokimiyati va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik shakli sifatida ochib beradigan, davlatning fuqarolari

4 Shediy M.V. Obshestvenniy antikorrupsionniy kontrol kak mexanizm protivodeystviya korrupsii //

Srednerusskiy vestnik obshestvennix nauk. – 2014. – №2. – C.123

5 O'sha manbada

6 Stepashin S.V. Razvitiye sistemi vnutrennego antikorrupsionnogo kontrolya v budjetnix organizatsiyax // Vestnik AKSOR. – 2013. – №2 (26). – S.3-5. Lavrentyeva O.O.

Antikorrupsionniy kontrol v sisteme gosudarstvennoy slujbi // Administrativnoye i munitsipalnoye pravo. – 2012. – №12. – C.35-34.





bevosita yoki jamoat tashkilotlari orqali davlat organlarining faoliyati samaradorligini jamoatchilik auditida ishtirok etish orqali baholab korrupsiyaviy xavf-xatarlarini aniqlashda ishtirok etishi haqidagi tushunchalar ham yo‘q emas¹.

Fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi jamoatchilik nazoratining mavjud ta‘riflari qator kamchilik va nuqsonlarga ega: birinchidan, jamoatchilik nazoratining maxsus shakli sifatida korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi jamoatchilik nazorati obyekti va predmetining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq tavsiflanmagan.

Mazkur sohadagi jamoatchilik nazorati obyekti birinchi navbatda davlat organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati hisoblanadi. Subyekti korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati ishtirokchilaridir, shu jumladan fuqarolar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari; ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazoratining maqsadlari ta‘riflanmagan. Fikrimizcha, har qanday faoliyatning maqsadi tushunchaning ta‘rifida, shu qatorda korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi jamoatchilik nazoratining ta‘rifida ham aks ettirilishi lozim.

Tabiiyki, ushbu nazoratining asosiy maqsadi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida korrupsiya holatini baholash va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining takomillashtirish choralarini taklif qilish, ya‘ni korrupsiyaning darajasini kamaytirish hisoblanadi; uchinchidan, xorijiy adabiyotlardagi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi jamoatchilik nazorati ta‘rifida birgina davlat hokimiyati organlari faoliyatining jamoatchilik auditini hisobga olmaganda, jamoatchilik nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish uchun foydalaniladigan vositalarga havolalar mavjud emas. Holbuki, xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasi hamda mamlakatimiz jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonunchilikka asosan **jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi** kabi jamoatchilik nazorati shakllarini nazarda tutilgan.





Mazkur vositalardan malakali mutaxassislar yoki ularning tashkilotlari foydalanishi maqsadga muvofiq, aks holda ushbu vositalardan malakasiz foydalanish ushbu sohadagi jamoatchilik nazoratining maqsadlariga erishishga olib kelmaydi.

Demak tahlillarga asosan dastlabki xulosaga kelish mumkinki, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi jamoatchilik nazorati – bu fuqarolik jamiyati institutlarining vakolatli (malakali) vakillari tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida korrupsiyani kamaytirish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladigan maxsus faoliyatdir.

Mazkur faoliyat sohasining mohiyatini ochib beradigan va yanada ilmiy rivojlanishni talab qiladigan dastlabki variantlardan birini quyidagicha taklif qilish mumkin:

- **Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi jamoatchilik nazorati** fuqarolik jamiyati institutlari vakolatli vakillarining davlat hokimiyati organlarida korrupsiyaning holatini baholash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan uni darajasini kamaytirish va unga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish mexanizmlari va vositalardan foydalangan holda amalga oshiradigan maxsus faoliyatidir.
- Korrupsiya bilan bog'liq muammolar to'g'risida jamoatchilikning xabardorligini oshirishda nodavlat subyektlar muhim rol o'ynaydiki. Jamoatchilikning korrupsiyaga qarshi kurashishga bo'lgan ehtiyojining ortishi hamda korrupsiyaga qarshi amalga oshirilgan strategiya va islohotlarning jamoatchilik tomonidan o'rganilishini rag'batlantirishga ko'mak beradi.
- Boshqa tadbirlarga quyidagilar kiradi: korrupsiyaga qarshi qaratilgan fokus-uchrashuvlar o'tkazish va mahalliy darajada yangi ruhdagi fikrlashni rivojlantirish uchun munozaralarni boshlash;





- fuqarolarga yordam va maslahatlar berish (korrupsiya to'g'risida xabar beruvchi kabi);
- korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirish bo'yicha qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqish;
- turli xil monitoring tadbirlarini o'tkazish va korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda ishtirok etish faoliyati kiradi⁷.

REFERENCES

1. SH.M.Mirziyoyev. «Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir». O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. // 07.12.2019 yil. <https://uza.uz/>.
2. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // 25.01.2020 y. <https://uza.uz/>.
3. Ismailov B. Davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning amaliy jihatlari // "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish masalalari: nazariya va amaliyot" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T., 2007.
4. Bafayev Sh. Obshestvenniy kontrol kak vajniy faktor postroyeniya demokraticeskogo pravovogo gosudarstva i grajdanskogo obshestva // Obshestvennoye mneniye. Prava cheloveka. – T., 2007. № 1.
5. Malikova G.R. Mahalla instituti rivojlanishining tarixiy– huquqiy asoslari. – T., 2017.

⁷ Batafsil qarang. Rukovodstvo OBSE po borbe s korrupsiyey. www.osce.org.

